

№ 6 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 6 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в.б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳафсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сейтов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал:
https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Аминов Хамидулла Абдирахимович -</i> БОБУР ДАВРИДАГИ САМАРҚАНД ШАЙХУЛИСЛОМИ	9-14
<i>Неъматов Рустам Абдуваид ўғли</i> ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР	15-23
<i>Raxmanov Zafar Adilovich, Aloxunov Alisher Ahmadjonovich</i> FARG'ONA VODIYSI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI JOYLASHUV QONUNIYATLARI: TAHLIL VA MULOHAZALAR	23-32
<i>Мансуров Музаффаржон</i> СОВЕТ ИТТИФОҚИ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА МАДАНИЙ ТУРИЗМНИНГ ТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ	32-42
<i>Mirsoatova Sayyora Turg'unovna, Muhsiddinov Ahrorbek Mamurovich</i> FARG'ONA MEZOLIT VA NEOLIT DAVRI JAMOALARINI O'ZARO MADANIY ALOQALARI XUSUSIDA	43-48

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Kurpayanidi Konstantin Ivanovich</i> COVID-19 PANDEMIYASI OQIBATLARINI BARTARAF ETISH SHAROITIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH MASALALARI	49-55
<i>Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li</i> KOMPANIYALAR SAMARALI BOSHQARUV TIZIMIDA ICHKI NAZORATNING O'RNI	56-65
<i>Абдуллаева Зульфия Иззатовна</i> ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПОВЕДЕНИЕ КЛИЕНТОВ ГОСТИНИЦ	66-74
<i>Алимова Муниса Юлчиевна</i> ҚИШЛОҚ АҲОЛИСИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР ТАСНИФИ	75-80
<i>Абдиева Наргиза Шухратовна</i> ИЧКИ АУДИТДА ФИРИБГАРЛИК РИСКНИ АНИҚЛАШ ВА БАҲОЛАШ	81-91
<i>Тўхтасинова Дилдора Раҳмонбердиевна, Ахунова Маърифат Хакимовна</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ҲАЁТ	92-97
<i>Tojimatov Izzatbek Ikromali o'g'li</i> BOZOR ISLOHOTLARI SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	98-103
<i>Савинова Галина Анатольевна</i> ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ЧЕРТЫ МСФО И НСБУ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОСТАВЛЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ	104-108
<i>Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li</i> QURILISH SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MASALALARI	109-114

Урдушев Хамракул, Мавлянов Мажид, Эшанкулов Сирожиддин, Розиева Гулхаё АГРОКЛАСТЕРЛАР ВА УЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ	115-125
--	---------

Худаярова Хуршида Абдуназаровна ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН БАНК ХИЗМАТЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ МУАММОЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ	126-132
---	---------

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Бойдадаев Абдуррохмон Толибжон ўғли РЕНЕССАНС ДАВРИДА ПАНТЕИСТИК ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ.....	133-141
--	---------

Аликулов Хусниддин Акбарович ҲОЗИРГИ ДАВРДА ГЛОБАЛ ЭКОЛОГИК ХАВФ-ХАТАР ВА НАНОТЕХНОЛОГИЯЛАР .	142-151
--	---------

Саидова Камола Усканбаевна РЕНЕССАНС ДАВРИ САНЪАТИ – ЖАҲОН МАДАНИЯТИ АЖРАЛМАС ҚИСМИ СИФАТИДА	152-156
--	---------

Shirinov Anvar Qanoatovich MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTI SOHASIDAGI STRATEGIYALARNING IJTIMOYIY- FALSAFIY TAHLILI	157-162
--	---------

Хасанов Бобуржон Хакимович ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА ОММАВИЙ НОРОЗИЛИК ҲАРАКАТЛАРИНИ ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ ҲОЖИЙ-МАҲКУРАВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ	163-167
--	---------

Xodjayeva Fotima Nabixonovna AHMAD G'AZZOLIYNING "SAVONIH" ASARI HAQIDA QISQACHA TASNIF	168-172
--	---------

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Rustamova Shaxnoza Abduraximovna MATN, TARJIMA TURLARI VA TARJIMADA TARJIMON MAHORATINING O'RNI	173-180
--	---------

Abdulloyeva Kamola Mirxon qizi MUALLIF DISKURSIV SHAXSI TUSHUNCHASI, STRUKTURASI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	181-191
--	---------

Turg'unova Fazilat Rustam qizi PRAGMALINGVISTIKA NUQTAI NAZARIDAN SARLAVHA FUNKTSIYALARI	192-197
---	---------

Saidov O'lmas Raxmatovich O'ZBEK TILI ISH YURITISH TERMINLARINING ETIMOLOGIK TAVSIFI	198-206
---	---------

Xuramova Dildora Rahkmonkulovna, Axmedova Firuza Asrorovna O'ZBEKISTONDA TARJIMONLARNING TARJIMA USLUBINI BERILISHI XUSUSIDA	207-213
---	---------

Ataboyev Isroiljon Mirza o'g'li MADANIYATLARARO SIYOSIY MAKONDA TAJOVUZKOR SALOHİYATGA EGA NUTQ TA'SIRINING USULLARI	214-219
--	---------

Murodova Nilufar Karomatovna

BLOGGERLIK FAOLIYATIDA MAHORAT MASALALARI 220-224

Ochilova Hilola Husan qizi

XITOIY TILIDA NOMINALIZATSIYA HODISASI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR 225-229

*Kuvonov Zarifjon Maxsiddin o'g'li*NEMIS TILIGA CHET TILIDAN O'ZLASHAGAN SO'ZLARNING STRUKTURAL-SEMANTIK
TADQIQI 230-238*Yakubova Nilufar Egamberganovna*

"MULLO NASRIDDIN" – TURKIY MATBUOT TARIXIDA MUHIM HODISA 239-245

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР*Абдуллаева Маликабону Эркин қизи*ХАЛҚ ТАЪЛИМИДА МАЪМУРИЙ БОШҚАРУВ ВА МЕХНАТ МУНОСАБАТЛАРИ БИЛАН
БОҒЛИҚ КОРРУПЦИЯВИЙ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ 246-256**13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ***Jumayev Rustam G'aniyevich*IJTIMOIY-GUMANITAR VA MUTAXASSISLIK FANLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH ORQALI TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH 257-263*Бозорова Муслима*ЭТНОПЕДАГОГИКА ТАЛАБА-ЁШЛАРДА ЎЗБЕКОНА МИЛЛИЙ ЎЗИГА ХОСЛИКНИ
ШАКЛЛАНТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА 264-270*Samadova Sarvinoz Samad qizi*

YOSHLARNI BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHGA DOIR KOMPETENSIYALAR.... 271-275

*Жўраев Воҳид Тоҳимаматович*РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ТАЪЛИМ
МУАССАСАСИНИ БОШҚАРИШ 276-288*Бозорова Назокат*ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИГА ОИД МАҲАЛЛИЙ МУЗЕЙ МАТЕРИАЛЛАРИ
ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ТАРБИЯВИЙ-ТАДҚИҚОТ ФАОЛИЯТИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВОСИТАСИ
СИФАТИДА 289-295*Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li*МАКТАВ О'QUVCHILARINI HUQUQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH TEKNOLOGIYALARI
BORASIDA EKSPERIMENT ISHLARINI TASHKIL ETISH VA NATIJALAR TAHLILI 296-301*Sharipova Sitara Xaydarovna*OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIMDAN
FOYDALANISH 302-307*Isag'aliyeva Sadafxon Muxammadaminovna*BIOLOGIYA O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL USULLARNI
QO'LLASH 308-312

<i>Umarov Abdusamat Abdumalikovich, Xojimurodova Mahliyoхon Kenjavoy qizi</i> OILA VA NIKOH SHAROITIDA AYOLLAR SPORTINING MUAMMOLARI	313-317
<i>Sulaymanova Dildora Nazarovna</i> LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH TEXNOLOGIYASINING MOHIYATI VA MAZMUNI...	318-325
<i>Ro'ziev Rustam Ro'zimurodovich</i> YONG'IN XAVFSIZLIGI MADANIYATI-ODDIYLIKDAN KOMILLIK SARI	326-330
<i>Акрамов Баходир</i> МАЛАКАЛИ ДАРВОЗАБОНЛАРНИ ЎЙИН ДАВОМИДА БАЖАРИЛАДИГАН ТЕХНИК-ТАКТИК ҲАРАКАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ	331-336
<i>Anvarjonov Ahrorjon Ahadjon o'g'li</i> BO'LAJAK TARIXCHILARDA TARIX FALSAFASI VA UNING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARIGA DOIR BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	337-342
<i>Umarov Bekzod Azizovich</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA PEDAGOGLARNING PROFESSIONAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI	343-349
<i>Бекимбетова Дильфуза Оралбаевна</i> РАЗВИТИЕ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА И ГОСУДАРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	350-356

09.00.00- Фалсафа фанлари

Xodjayeva Fotima Nabixonovna
BuxDU 3-bosqich doktoranti

AHMAD G'AZZOLIYNING "SAVONIH" ASARI HAQIDA QISQACHA TASNIF

Annotatsiya. Maqola tasavvuf tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan, islom tafakkurining yorqin namoyondasi Ahmad G'azzoliyning eng ahamiyatli shoh asari "Savonih ul-ushshoq" haqidadir. Ushbu asardagi oshiq qalbi va mashuq ruhiyati holatlarini bayon etishga qaratgan bo'lib, asosiy mavzu ilohiy ishqning mohiyati tog'risida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ahmad G'azzoliy, "Savonih ul-ushshoq", so'fiy, tasavvuf, ishq, oshiq, ma'shuq, qalb, ruh.

Ходжаева Фотима Набихоновна
Докторант 3 курса БухГУ

КРАТКОЕ ОПИСАНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АХМАДА ГАЗЗАЛИ "САВОНИ"

Аннотация. Статья посвящена важнейшему шедевру Ахмада Газзали "Савоних уль-ушшок", занимающему особое место в истории суфизма и являющемуся ярким проявлением исламской мысли. В этом произведении основное внимание уделяется описанию состояния души влюбленного и психики возлюбленного, а главной темой является сущность божественной любви.

Ключевые слова: Ахмад Газзали, "Савоних уль-ушшок", суфий, тасаввув, любовь, влюбленный, возлюбленный, душа, дух.

Khodjaeva Fotima Nabikhonovna
3rd year Doctorate student of BSU

A BRIEF DESCRIPTION OF AHMAD GHAZZALI'S WORK "SAVONI"

Abstract: The article examines "Savonih ul-Ushshaq", the most important masterpiece of Ahmad Ghazali, which has a special place in the history of Sufism and is a bright manifestation of Islamic thought. This work focuses on describing the state of the lover's heart and the lover's psyche, and the main theme is the essence of divine love.

Key words: Ahmad Ghazzali, "Savonih ul-ushshaq", Sufi, Sufism, love, lover, beloved, soul, spirit.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6Y2023N22>

Kirish. XII asrdagi borliq maydoniga qadam qo'ygan noyob shaxslardan biri bu Ahmad G'azzoliydir. Alloma arab va fors tilining har ikkalasida bir xil qalam tebratgan mutasavviflardandir. Ahmad G'azzoliydan bir necha asarlar bizgacha yetib kelgan. Ammo uning ahamiyatli shoh asari "Savonih ul-ushshoq" ning alohida o'rni va ahamiyati bor. Zero, mutafakkir tafakkurining cho'qqisi va eng oliy g'oyalari mana shu kitobda aks etdi. Asar muqaddima va 76 fasldan iboratdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ahmad G'azzoliy ijodi jahon falsafasida bir qator olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Eronlik faylasuf olim A.Zarrinkubning "Djustudju dar tasavvufi Iron", turk olimlaridan H.Baltachi "Saf Aşkın Üstadı": Ahmed Gazzālī ve Tasavvuf Anlayış, tasavvuf ilmî ve akademik araştırma dergisi asarlarida, amerikalik tadqiqotchi Joseph E. B. Lumbard "Ahmad al-Ghazālī, Remembrance, and the Metaphysics of Love" hamda E. Braun, Dj.S. Trimingem, R. Helmut, A. Shimmel, tadqiqotlarida Ahmad G'azzoliy hayoti va faoliyati haqida chuqur tahlillar ahamiyatga molik.

Tadqiqot metodologiyasi. Maskur maqolani tayyorlashda analiz va sintez, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, germeneytika kabi ilmiy bilish usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. "Savonih ul-ushshoq" asarida mutafakkirning his-hayajoni va uning zavq-shavqi kitobdagi jumalarning har bir satrlarida seziladi. Asarda ko'pgina haqiqatlar bayon qilingan bo'lib, bu Ahmad G'azzoliyning ko'p yillar davomida sayr-u suluk (tariqat, Allohga oshiqlik yo'li)da bo'lgan tajribasining hosilasidir. U nafaqat ishq-u oriflik yo'lining sohibnazari, balki psixologiya va inson ruhiyatini tadqiq etish borasida ham alohida mahoratlik kishi edi. Bu kitobning ahamiyati va qiymati borasida shuni aytish yetarliki, u o'zidan keying asarlar uchun go'zal namuna bo'lib qoldi. Sababi, bu kitobning asosiy nuqtasi ishq to'g'risida yoritilganidir.

Ushbu kitob haqida germaniyalik olim Annemari Shimmel shunday ta'riflagandi: "Agar u (Ahmad G'azzoliy) faqat "Savonix ul – ushshoq" nomli kichik bir risola yozgan bo'lganida ham, bu uni musulmon dunyosining eng buyuk mistigi sifatida qabul qilish uchun yetarli bo'ladi".[2]

Ahmad G'azzoliyning "Sevanih ul-ushshoq" asari tasavvuf sohasida yozilgan barcha kitoblardan farq qiladi. Asar so'fiylik odobini dindorlarga va so'fiylarga o'rgatish uchun yozilmagan. Kitobda yoritilgan mavzular, asosan, tasavvufning amaliy va axloqiy masalalari emas, balkim asar tasavvufiy asoslar va sof nazariy tasavvufning qo'llanmasidir. "Sevanih ul-ushshuq" asarida na tasavvuf tarixi, na mashoyixning hayotiy hikoyalari kiritilmagan.

Darhaqiqat, tasavvuf kitoblarida keltirilgan tavhid, ilm, ma'rifat, sifat va af'ol kabi mavzular ham bu kitobda yoritilmagan. Bu mavzular tilga olingan taqdirda ham, ular boshqa asarlarda kuzatilganidan farqli tarzda tilga olinadi. Aslida asar boshqa sohaga tegishli. Uning mazmuni oshiqning ruhiy holati va ma'shuqning sifatlari bilan bog'liqdir. Sof metafizik asar bo'lgan kitobning mavzusi ishqdir. Biroq, bu kitobda sevgi psixologik hodisa sifatida qabul qilinmaydi. Sevgi ontologik haqiqatdir, balki haqiqatlarning eng yuqorisi, buyugidir. Asardagi mavzular ham shu haqiqat atrofida ko'rib chiqiladi va biz sevgi metafizikasi deb ataydigan tasavvufiy tizim shakllanadi. G'azzoliyning "Sevanih ul-ushshoq" asarida bayon qilgan ayrim qarashlarini avvalgi shayxning so'zlarida ham ozmi-ko'pmi uchratish mumkin. Asarning boshqa tasavvufiy asarlarga qaraganda muhimligi shundaki, muallif bu masalalarni tizimli yo'lga qo'ygan va o'ziga xos tizimni tushuntirib bergan. So'z yuritilayotgan tizim fors tasavvuf she'riyatining asosini tashkil etuvchi maktabdir.

Fors adabiyoti, ayniqsa, she'riyati XI asr oxirida asta-sekin boshlangan o'zgarishni mukammallik darajasiga olib keldi, buning natijasida XII asr boshlarida fors tasavvufining ikki yetakchi namoyandasi yetishib chiqdi: Sanoiy va Ahmad G'azzoliydir. Adabiyot vodiysida voyaga yetgan Sanoiy adabiyot daraxtining pishgan mevalarini terib, tasavvufiy nazm adabiyotiga asos solgan.

Biroq, ushbu adabiyot metafizik tushuntirishga muhtoj bo'lib qoldi. Bu burchni munosib bajargan Ahmad G'azzoliy edi. "Savonih" tasavvufiy tajriba, zavq, iltijo va she'riyat ma'naviyatidan vujudga kelgan falsafadir. Muallif biz bilan shunday bir jihatdan gapiradiki, bu o'lchovda falsafa she'riyat, she'riyat esa falsafaning o'zi. [3]

Ahmad G'azzoliyning falsafiy va she'riy asarini yaratish yo'lida qo'ygan qadami nafaqat so'fiylik tarixi va fors so'fiy adabiyotida, balki o'z ijodi bilan o'zidan keyin hech kimga tengsiz bo'lib, bir darajaga yetadi. Bu mumtoz va yangicha asar islom madaniyati tarixi o'zining falsafiy va tasavvufiy ijod bosqichida bo'lgan bir paytda paydo bo'ldi. XIII asr va undan keyin ham bir qancha adiblar Ahmad G'azzoliyga taqlid qilib, bir qancha asarlar yozdilar. **Asarida keltirilgan ko'plab g'oyalardan keyingi shoirlar Farididdin Attor, Sa'diy Sheroziy, Faxriddin Iroqiy va boshqalar foydalanganlar.** "Savonih ul-ushshoq" asariga taqlid qilib yozilgan eng muhim asar Fahriddin Iroqiyning "Lamoat" asaridir. Biroq biron-bir asar "Savonih ul ushshoq" asarining mavqeiga yeta olmadi.

Asar shu jumladan boshlangan bo'lib, ishq so'zini shunday tariflaydi: "Mazkur asar ishqning ma'nosiga taalluqli bo'lgan bir nechta fasllardan iborat. Aslida ishq so'zi bironta harfga va yoki so'zga sig'maydi. Zero, u shunday bir bokira ma'noki, uning bokiralik pardasini yirtish biron bir harfning qo'lidan kelmaydi. Mabodo, biz bu bokira ma'nolarni harflarga erga beradigan va gap chimildig'i ichiga kiritadigan bo'lsak, undan paydo bo'ladigan iboralar faqatgina ishoralar bo'ladi xolos. Asl ma'no tushunarsiz bo'lib qolaveradi. Bu tushunarsizlikdan kishi haqiqiy zavqni ololmaydi. Bunda ikki tomir bo'ladi: iboraga ishora va ishoraga ibora. Ammo basirat ko'zi bilan ko'rilsagina, bu fasllardagi jummalarni tushunish va ma'nolarni anglash mumkin."

Ahmad G'azzoliy "Savonih ul-ushshoq" asarida ishq haqida shunday deyiladi: Ilmning chegarasi ishqning qirg'og'igachadir. Ilmga uning qirg'og'idan u yog'iga ish ham yo'l ham yo'qdir. Ammo ishqning jalolati shu qadarki, uni so'z bilan na vasf va na bayon qilib bo'ladi va na ilm bilan idrok qilib bo'ladi. Bu haqda shunday deganlar:

Ishq shunday bir ko'rinmas narsadirki, uni inson hargiz ko'rolmas,

Bu oshiqlar aytayotgan so'zlar hammasi lof va behudadir.

Har kim o'zicha ishq to'g'risida lof ursa,

Bilsinki, ishq har qanday tasavvur-u qanday, qanaqa kabi sifatlardan xolidir.[1]

Ahmad G'azzoliy ishqni shunday tasvirlaydi: Ishq yashirindir. Uni hech kim o'z ko'zlari bilan ko'rmagan, Qachongacha bu oshiqlar bema'ni gaplarni gapiradilar, Har kim o'zining ishq haqidagi bema'ni fikrlarini aytadi. Ishq esa barcha fikrlarning boshqa tomonidadir.

Ishq, Ahmad G'azzoliyning fikricha, oshiq ustidan hukmronlik qiladi, unga qandaydir bir majburlash kabi bo'lib, unga hech qanday ixtiyor qoldirmaydi va uni butunlay qamrab oladi. Ishq - bu sinov, azob-uqubatlar ko'p jihatdan unga tegishlidir, qo'rquv va titroq unga doimo hamroh bo'ladi: "Ishq - bu baxtsizlikdir. Ammo men baxtsizlikdan qochmaydigan kishiman. Muhabbat uxlagan paytda, men u yerga borib, uni uyg'otaman, Og'aynilarim menga: "Baxtsizlikdan saqlan!" deydi. Baxtsizlik mening qalbim. Qanday qilib men qalbidan qochishim mumkin? Ishq daraxti yurakning o'rtasidan o'sib chiqadi. u suvga muhtoj bo'lganida, men uni ko'z yoshim bilan sug'oraman. Garchi muhabbat go'zalu, ishqiy qayg'u xunuk bo'lsada, Ikkalasini bir-biri bilan aralashtirish men uchun baribir ham yaxshidir".[4]

Ahmad G'azzoliy Yaratuvchi tomonidan yaratilgan moddiy olamning mohiyati haqida fikr yuritadi, uning qarashlari Aflotun va neoplatonistlarning falsafiy qarashlari bilan

o'xshashligi ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, falsafiy qarashlarida Aflotun "g'oyalar olami" va "soyalar olami" mavjudligini tan oladi. "Soyalar dunyosi", Platon nuqtai nazaridan, fenomenal olam bo'lib, "g'oyalar olami"ning mavjudligi tufayli o'zini namoyon qiladi: "...turlar tabiatda xuddi namunalardek turadi va boshqa narsalar ularga yaqinlashadi va ularning o'xshashiga aylanadi". Xuddi shunday fikrlarni Ahmad G'azzoliy ta'limotida ham uchratamiz, unda mutafakkir bizning moddiy dunyomiz narigi dunyoning namunasi hisoblanib, uning soyasi ekanligini ta'kidlaydi. Soya yo'qoladi, lekin soya tushadigan narsa abadiy qoladi. Ya'ni, Ahmad G'azzoliy fikricha, moddiy olam halok bo'ladi, birinchisining asosi bo'lgan g'oyalar olami yo'qolib ketmaydi.

Shunday qilib, moddiy olam ruhlar olamining soyasi bo'lib, uning namunasida yaratilgan, uning namoyon bo'lish yo'li hisoblanadi. Biroq, bularning barchasiga qaramay, "soyalar dunyosi" g'oyalar va ruhlar dunyosi bilan bir xil emas. Bu olam, mutafakkirning fikricha, faqat shakl sanalib, mohiyat esa g'oyalar olamida qoladi. Fenomenal olam faqat ruhlar olamidagi narsalar nomlarining ifodalovchisidir.

Ahmad G'azzoliy ham haqiqatni izlab yurgan oshiq sayyohdir. U o'zining mahbubi – Mutlaq borliqni qidiradi va natijada uning Mutlaq borlig'i barcha mavjud narsalarda bor degan xulosaga keladi. Bunday qarashni ko'plab Sharq panteistlariga xos bo'lib, ular hamma joyda Xudo borligini tan olishni afzal ko'radilar.

Ruh Ahmad G'azzoliy nuqtai nazaridan narigi dunyoga mansub bo'lib, inson tanasiga kirib kelgan Mutlaq Ruhning bir qismidir. Bu borada u Ibn Sino, Rumiy va boshqalar kabi ruhni bu dunyoga yuborilgan va qafasga solingandek tanada joylashgan qush bilan qiyoslaydi. Ammo ruhning bu asirligi vaqtinchalik va u albatta undan xalos bo'ladi. Aytish kerakki, ruhni qush bilan, tanani qafas, zindon bilan bunday allegorik qiyoslash musulmon Sharq tafakkuri tarixida yangilik emas. Bu haqda Ibn Sino ham, uning akasi Abu Homid G'azzoliy va boshqa ko'pgina mutafakkirlar ham gapirishgan.

Ahmad G'azzoliy "Savonih ul-ushshoq" asarining 9-faslida shunday bayon etadi: Ishqning siri hech qachon birovga to'liq yuzini ko'rsatmaydi, negaki, u azalning bir qushidir. U bu yerga, ya'ni bu dunyoga abadiyatdan musofir bo'lib kelgan. U bu dunyodagi hadas, ya'ni yaratilgan narsalarning ko'ziga yuzini ochmaydi. Uning uyasi azalning jalolatidagi oshyon bilan payvasta. Boshqa oshyonlar unga to'g'ri kelmaydi. Gohida u azaldagi oshyoniga uchib boradi va o'zining jalol va izzat pardasiga o'raladi. Biroq, u hech qachon o'z yuzini ilmning oldida ochmagan va ochmaydi ham. Bilginki, u faqatgina bu dunyoning aloyiq va avoyiqlaridan, ya'ni dunyoga bog'ladigan hamma narsadan voz kechgan va ilmiy fikr, handasaviy o'y va falsafiy xayollardan, orzu-havaslaridan mosivo bo'lganlargagina ko'rinadi.

Ahmad G'azzoliy ruhning mohiyatini emanatsiya nazariyasi doirasida ham tushuntiradi. U Xudoni quyosh, ruhni esa o'sha quyoshning nurlari bilan qiyoslaydi. Quyosh nurlari quyosh bilan bog'langanidek, ruh ham Mutlaq ruh – Xudo bilan bog'langan [1]. Ammo bu nur quyoshdan vaqtincha ajratilgan, ular orasida devor bor. Mutafakkirning fikricha, bu devor albatta qulaydi va quyosh bilan nurlar – xudo bilan ruh albatta, yana birlashadi.

Ahmad G'azzoliy "Savonih ul-ushshoq" asarining 45 -faslida qalbning vazifasini shunday bayon etadi: Bilginki, inson a'zolarining har birining bajaradigan o'z ishi bor. Agar o'sha ishni qilmasa, u ishsiz qolgan hisoblanadi. Ko'zning ishi ko'rish, quloqning ishi eshitishdir. Qalbning ishi esa ishqdir. Agar qalbdagi ishq bo'lmasa, u ishsiz qolgandir. Qachonki, unga ishq kirsam, u o'z ishini boshlaydi. Bas, aniq bo'ldiki, qalb ishq va oshqlik uchun yaratilgan. Bundan o'zga narsani

bilmaydi. Ko'zdan to'kilayotgan ashk ma'shuqdan xabar talab qilgan junbushning natijasidir. Chunki uni ko'rish ko'zdan boshlanadi. Ahmad G'azzoliyning e'tirofiga ko'ra, oshiq bo'lmagan qalb bo'shliqdan iborat, uning tanilishi ishq bilan bo'ladi. Bu jihatdan insondagi har bir a'zo bir ishni qilishini tilga keltirganidan keyin qalbning ishq va oshiqlik uchun yaratilgani, boshqa bir ish uchun bo'lmaganligi tushuniladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Ahmad G'azzoliyning mana shunday fikr va g'oyalari uning "Savonih ul ushshoq" asarida mujassamdir. Asarni o'qigan kishi shuni anglaydiki, G'azzoliy nafaqat ishq va oriflik yo'lida peshqadamlardan, balki ruhiyat(psixologiya) va insonlar qalbini o'rganish borasida ham malakalik ustozlardan biridir. U o'z diqqat etiborini oshiq (suluk) va mashuq(Haq) ning ichki qalbdagi holatlarini bayon etishga qaratgan bo'lib, bu fikrlar nafaqat uning o'z zamonida balki undan keyin ham noyob hisoblanadi. Zero hech kim uningchalik oshiq qalbi va mashuq ruhiyati haqida bu qadar chuqur mulohaza qilmagan edi va darhaqiqat ishq psixologiyasi borasida bu asar o'rnini bosadigan biror kitobni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. احمد غزالی. سوانح. انتشارات حقیقت؛ تهران، چاپ پنجم، ۱۳۸۳ ص 7 (Ahmad G'azzoliy "Savonih" Intishoroti haqiqat. Tehron 5-nashr 1383,7-bet
2. Ahmad G'azzoliy "Savonih al – ushshoq" Forscha nashrga kirish so'zi qismidan olingan.- M.:Rieletiveb 2013,7-bet.
3. Nasrullah Pûrcevâdî. Ahmed Gazzâlî'ye göre hayal âlemi.Ankara. Âşinâ 2005. VII. 21-22 s-92.
4. V. A. Drozdov.Misticheskaya lyubov v iranskom sufizme.//Sufizm v Irane i Sentralnoy Azii Almati: 2006, -S.106.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 6 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатида олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).